

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida  
UDK:338.45:663(575.1)

**MUXTOROVA MADINA AZAMAT QIZI**

**OZIQ-OVQAT SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-  
IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**  
**i.f.d., prof. R.Nazarova**

**Toshkent – 2025**



001  
1-92

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	<b>BOB. OZIQ-OVQAT SANOATI TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>14</b>
1.1.	Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti- rishning nazariy asoslari.....	14
1.2	Oziq-ovqat sanoatining o'ziga xos xususiyatlari va uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.....	30
1.3	Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari.....	44
	1-bob bo'yicha xulosa.....	60
<b>II BOB</b>	<b>O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT SANOATINING TASHKILY-IQTISODIY HOLATI VA TAHLILI.....</b>	<b>62</b>
2.1.	O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoatining ahamiyati va uning tarkibiy tuzilishi.....	62
2.2	Oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili va ularni baholash.....	76
2.3	Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti- rishda eksport-importning roli va tahlili.....	92
	2-bob bo'yicha xulosa.....	105
<b>III BOB.</b>	<b>OZIQ-OVQAT SANOATINI TASHKILY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>107</b>
3.1	Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari.....	107
3.2	Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish.....	118
3.3	Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti- rishning istiqbollari va prognoz ssenariylari.....	120
	3-bob bo'yicha xulosa.....	133
	<b>Xulosa.....</b>	<b>136</b>
	<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>140</b>
	<b>Ilovalar.....</b>	<b>153</b>

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

### **Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati**

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshishi bilan uni ishlab chiqarish o'rtasida mutunosiblik mavjud emas. Ayniqsa, so'ngi yillarda ro'y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, global pandimiya, iqlim o'zgarishlari va kechayotgan yuqori inflyatsiya hamda ishsizlik darajasining oshishi tufayli hozirda dunyoda 690-780 mln.dan ortiq odamlar ochlik muammosiga duch kelgan<sup>1</sup>. Xususan, yuzaga kelgan ochlik muammosining 55 foizi Osiyo, 38 foizi Afrika, 6 foizi Lotin Amerikasi va Karib dengizi hamda qolgan qismi Shimoliy Amerika, Yevropa va Okeaniya mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi<sup>2</sup>.

Jahonda kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligini bartaraf etish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir davlatning asosiy hamda strategik vazifasi bo'lib, uning optimal yechimi oziq-ovqat sanoati tarmog'ini, jumladan qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi nafaqat aholini oziqa mahsulotlari bilan ta'minlash, balki, yuqori daromad keltiruvchi tarmoq hamda bandlikni oshirishda ham muhim hisoblanadi. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari bozoridan Xitoy 1630 mlrd., AQSH 1011 mlrd. va Italiya 201,7 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad ko'rgan bo'lsa, Germaniyaning faqatgina qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari savdo aylanmasi 114,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Shuningdek, Kanadada 7,6 mln. va Rossiyada 2 mln. nafardan ortiq aholi oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida band<sup>3</sup>.

O'zbekistonda ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib, 2023 yilda respublika bo'yicha sanoat asosida 65174,7 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari va 17968,3 mlrd. so'm ichimliklar ishlab chiqarilgan, shuningdek 404648,6 mlrd. so'm qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsada, shu davrda 1962,4 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlarini import qilinib, 4141,8 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilingan<sup>4</sup>. Ushbu

<sup>1</sup> FAO data. [https://www.fao.org/3/cc8166en/online/cc8166en.html#chapter-3\\_1](https://www.fao.org/3/cc8166en/online/cc8166en.html#chapter-3_1)

<sup>2</sup> FAO. 2023. Oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari to'plami. In:FAOSTAT. <https://www.fao.org/faostat/en/#data/FS>

<sup>3</sup> <https://www.statista.com/outlook/cmo/food>

<sup>4</sup> <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika>